

**MISR DAVLAT BOSHQARUVIDA OAV TEXNOLOGIYASIDAN
FOYDALANISH****ИСПОЛЬЗОВАНИЕ МЕДИА-ТЕХНОЛОГИЙ В ГОСУДАРСТВЕННОМ
УПРАВЛЕНИИ ЕГИПТА****THE USE OF MEDIA TECHNOLOGY IN EGYPTIAN PUBLIC
ADMINISTRATION****Karimov Farxod Erkinovich,**O'zbekiston Xalqaro islom akademiyasi,
"Xalqaro munosabatlari va ijtimoiy fanlar"
kafedrasi mudiri, siyosiy fanlar doktori

Tel.: +99890975 19 19

email: farxodkarimov1987@gmail.com**Mirzohidov Ulug'bek**

O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi

Xalqaro munosabatlar yo'nalishi 4-bosqich talabasi

e-mail: umirzohidov@gmail.com

tel.: +99893 532 68 78

Annotatsiya

Mazkur maqola Misr Arab Respublikasi mustaqillikka erishganidan keyingi davrdan 21-asrning ikkinchi o'n yilligigacha bo'lgan davrda, mazkur davlat OAV va davlat o'rtasidagi munosabatlar va buning Arab bahorida tutgan o'rni va buning natijalariga bag'ishlangan. Munozara davomida hukumat tomonidan OAV ga nisbatan ta'sir o'tkazish mehanizmlari hamda ta'sir usullari ko'rib o'tiladi.

Kalit so'zlar: Nilesat, "precensorship", "postcensorship", "hybridization", CANVAS, "Отпор", Resurslarni safarbar qilish nazariyasi, Tunis progressiv yoshlari, 6-aprel yoshlar harakati

Аннотация

Данная статья посвящена взаимоотношениям между СМИ и государством в период с момента обретения Арабской Республикой Египет Независимости до второго десятилетия 21 века, а также роли, которую это сыграло в арабской весне, и ее последствиям. В ходе обсуждения будут рассмотрены механизмы воздействия правительства на СМИ, а также методы воздействия.



Ключевые слова: Nilesat, “precensorship”, “postcensorship”, “hybridization”, CANVAS, “Отпор”, теория мобилизации ресурсов, прогрессивная молодежь Туниса, молодежное движение 6 апреля

Annotation.

This article is devoted to the relationship between the media and the state in terms of the role of this in the Arab Spring and the results of it, from the period after the independence of the Arab Republic of Egypt to the second decade of the 21st century. In the course of the debate, the mechanisms of influence on the media and methods of influence are considered by the government.

Key words: Nilesat, “precensorship”, “postcensorship”, “hybridization”, CANVAS, “Отпор”, resource mobilization theory, progressive youth of Tunisia, April 6 youth movement

KIRISH

Bugungi globallashtirish zamonda texnologiyaning shiddat bilan rivojlanishi natijasida Shaxslar jamiyatlari va tashkilotlari oʻrtasida axborot almashinishda Ommaviy axborot vositalari (keyingi oʻrinlarda OAV deb ketiladi) eng tezkor va eng samarador vositaga aylandi. Qolaversa, OAV ning millionlab insonlarni safarbar qilish orqali real siyosiy oʻzgarishlar amalga oshirish imkoniyati ham bugun biz koʻrib turgan Rossiya-Ukraina urushi va qolaversa bir necha oydan beri davom etayotgan Erondagi qoʻzgʻolonlardan tortib yaqinda boʻy koʻrsatgan Xitoydagi oq qogʻozlar inqilobi nomini olgan biroq hali aniq bir oʻzgarish bermagan harakatlardan koʻrishimiz mumkin. Mazkur maqolada Misrning mustaqillikka erishganidan soʻng OAV ning tashkil topishi uning turlarining oʻzgarishi hamda Arab bahorigacha Davlat va OAV oʻrtasidagi munosabatlar, Arab bahori fenomenining sodir boʻlishida OAVning hissasini hamda natijalarini koʻrib chiqamiz.

MUHOKAMA VA NATIJALAR.

XX-asrda Misr hukumati va OAV

Mustaqil Misr Arab Respublikasida zamonaviy OAV ning shakllanishida uch shaxs muhim roʻl oʻynagan va bular Jamol Abdul Nosir (1954-1970) Anvar Sadat (1970-1981) va Husni Muborak (1981-2011)lardir.

“Jamol Abdul Nosir OAV ning katta kuch ekanligini oʻz hukmronligining ilk kunlaridanoq anglab yetgan edi va shu sababli barcha OAV larni milliyalashtirdi. Buning oqibatida qattiq senzura oʻrnatildi. Misr Jazoir, Liviya va Sudan kabi inqilobiy arab tuzumlari orasida birinchi boʻlib nashriyotlar ustidan nazoratni xususiy sektordan tortib olgan birinchi tuzum boʻldi. 1960-yilda esa yangi qonun amaliyotga joriy etildi. Unga koʻra Misr radio va televideniya idorasi (إتحاد الإذاعة والتلفزيون المصري) ruxsatisiz hech qaysi gazeta nashr qilish mumkin emas edi. Bundan tashqari toʻrtta eng yirik nashriyotlar boʻlmish dorul



ahrom (دار الأهرام) dorul axbar al-yavm (دار الأخبار اليوم), dorul hilol (دار الهلال) va dor rose al-yusuf (دار روز اليوسف) kabilar milliy radio va televideniye idorasi tasarrufiga o'tkazildi" (Hussein Amin & James Napoli, 1999 p.179).

Bundan bir muncha farqli o'laroq Anvar Sadat davrida Misrda o'z davrining noshirlik portlashi bo'lib o'tdi. Buning oqibatida Misr va uning media mahsulotlari butun Arab dunyosida shuxrat topdi. Uning davrida Abdul Nosir davrida OAVga safarbar etuvchi (mobilizator) sifatidagi qarashdan ko'proq demobilizatsiya va tinchlantirish vositasi sifatida qaraldi. 1967-yilgi "6 kunlik urush" dagi mag'lubiyatdan so'ng televideniya Amerika va g'arb dasturlari Sovet dasturlari bilan almashtirildi. Ammo mamlakatning Sovet ittifoqidan G'arb tomon burilishi ham o'zi bilan bir qator o'zgarishlarni olib keldi. Masalan senzura "rasman" chek qo'yildi, siyosiy partiyalar tashkil qilishga ruxsat berildi, va ularga o'z gazetalarini chop etishga ruxsat etildi.

Qolaversa, aynan Anvar Sadat davrida islomiy harakatlar ham o'z gazetalarini chop eta boshladilar. Ular o'z harakatlarini Misr Til va madaniyatini saqlash uchun qilinayotganini da'vo qilishardi.

"Anvar Sadat va Husni Muborak davrlarida senzura institutsional xarakter va shakl kasb etdi. Madaniyat vazirligi bosh senzura organiga aylangan bo'lsa Ichki ishlar vazirligi, Axborot vazirligi, Al-Azhar universiteti, Davlat axborot xizmati, Prezident devoni va hatto Misr po'chtasi kabi muassasa va tashkilotlar ikkilamchi senzura tashkilotlariga aylandi". (Hussein Amin & James Napoli, 1999 p.186)

Aynan Anvar sadat davrida bir necha muxolifatdagi partiyalarga o'z gazetalarini chiqarishga ruxsat berildi. Shuningdek milliy gazetalarga o'sha paytgacha "qalam tebratilmagan" mavzularga qo'l urishga qisman ruxsat etildi. Bu hozirda biz ma'lum bir avtoritar davlatlarda cheklangan so'z erkinligi deb ataluvchi holatni eslatadi. Davlat jurnalistlarning o'zlarini o'zlari senzura qilishlariga umid bildirardi. O'z navbatida jurnalistlar esa shu cheklangan so'z erkinligini ham katta yengillik sifatida qabul qilishgan va ehtimol o'sha paytda bu mazkur tuzumga birmuncha hayrihohlikni oshirgan deb ham ko'riladi.

Ko'pgina manbalarda Husni Muborak davrida Axborot siyosati faqatgina yangi asr boshida o'zgarishni boshlagani ta'kidlanadi. Buni biz 1994-yil faoliyatini boshlagan "Nile Tv International" Misrning birinchi sun'iy yo'ldosh telekanali faoliyatidan payqashimiz mumkin. 1996-yilda esa "Nilesat" Misr sun'iy yo'ldoshlarini boshqarish kompaniyasi tashkil topdi. Mazkur davrda hukumat e'tibori ko'proq televideniya va Radioga qaratiladi. Buni Husayn Y. Amin va D. Boydlar Misrdagi savodxonlik darajasining birmuncha pastligi bilan bog'lashgan.

Endi esa Misr OAV sidagi Oziga xos "Red lines" ya'ni yoritilishi mumkin bo'lmagan yo'ki tavsiya etilmagan mavzularga to'xtalib o'tsak.

- "Prezident va uning oilasi



- Armiya va uning moliyalashtirishi (uning katta qismi AQSH bilan bog'liq bo'lgani uchun)
- Din va dinlararo munosabatlar (ayniqsa musulmonlar va qibtiy xristianlar o'rtasidagi nizolar va Musulmon Birodarlar tashkiloti tufayli)
- Ba'zi bir davlatlar bilan Misr o'rtasidagi munosabatlar (Xususan Saudiya Arabistoni va o'sha vaqtlarda Liviyada mavjud bo'lgan migrantlar masalasi)
- Jins va shu bilan bog'liq mavzular yoxud LGBT
- Boshqa mavzular" (Edward Webb, 2014, p.25).

Amerikalik olim Patrick H O'Neilning ta'kidlashicha Senzuraning ikki xil turi yuritilgan. Birinchisini u "precensorship" deb atagan bo'lib biz buni qattiq senzura deyishimiz mumkin. Chunki mazkur tushuncha hukumat tomonidan maqul ko'rilmagan materialni chop etgan nashriyotni yopishni nazarda tutadi. Bu esa aholi o'rtasida deyarli to'liq maqullanmagan. Ikkinchi usul esa "postcensorship" deb atalib buni biz yumshoq senzura sifatida talqin qilishimiz mumkin. Chunki mazkur turda yuqoridagi holat sodir bo'lganda nashriyot litsenziyasini olib qo'yish, bosim o'tkazish, nashriyotga qarshi iqtisodiy choralar qo'llash, turli xil tuxmatlar yog'dirish yoxud mazkur nashriyotni ommaviy obro'sizlantirish kabi usullar qo'llaniladi. Misrda Abdul Nosir davrida birinchi tur ustunlik qilgan bo'lsa, keyingi davrlarda ikkinchi usul tobora keng qo'llanila boshlagan.

XXI-asrdagi o'zgarishlar va inqilob sari

Shunga qaramay 21-asrning boshiga kelib Misr OAVlarida yangi fenomen vujudga keldi va bu Chadwick A tomonidan "hybridization" ya'ni gibridlanish atamasi bilan izohladi. Mazkur fikrga ko'ra "transmilliy OAV lar Yaqin sharq mamlakatlaridagi senzuraqa putur yetkazishi mumkin. Sun'iy yo'ldosh televideniya va internetning qattiq nazorat ostidagi Arab dunyosiga kirishi, ushbu mamlakatlardagi siyosiy va ijtimoiy "gipermedia makoni"ni vujudga keltirdi. Mazkur makon esa tuzumlar uchun potensial buzg'unchi platformaning shakllanishiga olib keldi" (Naomi Sakr, 2012, p.323).

Britaniyalik professor Naomi Sakrga ko'ra buning natijasi o'laroq Misr televideniya 21-asrning Arab bahorigacha bo'lgan davrini 3ga bo'lishimiz mumkin. Bular:

- "2001-2004-yillar telekanallar Misr siyosatiga oid masalalarni ochiq muhokama qilishni boshlaydi (sabab Misrda oligarxlar xohishiga ko'ra amalga oshirilgan "xususiylashtirish" siyosati)
- 2005-2006-yillar tok-shoularning siyosiylashuvi (2005-yilgi prezidentlik saylovi tashviqoti)
- 2007-2010-yillar siyosiy safarbarlik va televideniya va onlayn makon qarama-qarshiligi (Televideniya senzuraning kuchayishi va bo'lajak namoyishlarga mafkuraviy tayyorgarlik)" (Naomi Sakr, 2012, p.325-333)

Jamiyatdagi adolatsizliklar esa Facebook ijtimoiy tarmog'ida bir qancha oppozitsion ruhdagi guruhlarining tashkil etilishiga olib keldi. Bunga misol qilib Huquqni muhofaza



qiluvchi organ hodimlarining giyohvand moddalar bilan savdosining guvohi bo'lib buni suratga olgani uchun do'pposlab o'ldirilgan Xolid Said holatini ko'rishimiz mumkin. "Uning o'limidan so'ng a'zolari soni 500 000 dan oshgan "Biz hammamiz Xolid Saidmiz" Facebook sahifasi ochiladi" (Bhuiyan & Serajul I, 2011, p.17).

Misr faollari Ijtimoiy tarmoqlar orqali turli xil chet el tashkilotlari bilan ham ma'lumot va axborot almashinuvi yo'lga qo'ygan. Masalan "Misrning sanoat shaharchalaridan biri bo'lgan Mahalla shahrida tashkil topgan "6-aprel yoshlari harakati" tashkilotining Tunisda tashkil etilgan "Tunis progressiv yoshlari" tashkiloti bilan ijtimoiy tarmoqlarda aloqa almashinish va namoyishlar o'tkazishga oid tajribalar almashishgani buni tasdiqlaydi.

Misrlik faollar faol aloqa o'rnatgan keyingi tashkilot bu CANVAS (Centre for Applied Nonviolent Action and Strategies) –zo'ravonliksiz amaliy harakatlar va strategiyalar markazidir. "6-aprel yoshlari" harakati a'zolari Belgradga safar qilib tinch namoyishlarni o'tkazish tartib qoidalari va amaliy masalalarini o'rganishdi.

Bundan tashqari misrlik faollar, ham internet orqali va ham yuzma-yuz Serbiyada 2000-yilda Slobodan Milosovich tuzumini ag'darishda faol bo'lgan "отпор" harakati bilan bog'langanligi e'tiborga molikdir. Serbiyalik faollar esa o'z navbatida namoyishchilar bilan amaliy mashg'ulotlar o'tkazgan" (Zhuo X, Wellman B & Yu J, 2011, p.7). Bu esa Misrliklarning 25-yanvar namoyishlari davomida o'zaro aloqani samarali yo'lga qo'yib, mavjud resurslarni safarbar eta olishlaridan tortib ko'z yoshi chiqaruvchi gazdan himoyalani uchun limon ,piyoz va sirkadan foydalanganliklarigacha chet ellik maslakdoshlari tomonidan shug'ullantirilganliklaridan darak beradi.

Arab bahori va OAVning ta'siri

Arab bahorining va xususan Misrdagi namoyishlarning boshlanishi va davom etishini tushunishimizda 1977-yil John McCarthy va Mayer Zald lar tomonidan fanga kiritilgan Resurslarni safarbar qilish nazariyasi (resource mobilization theory) ga murojaat qilishimiz kerak bo'ladi. Mazkur nazariyaga ko'ra "Ma'lum bir harakat muvaffaqiyatida nafaqat turli ko'rinishdagi resurslarning mavjudligi balki ularni samarali safarbar etish va boshqarish ham muhim ahamiyatga ega" (Naheed Eltantawy & Julie B.Wiest, 2011, p.6).

Ijtimoiy tarmoqning Misrdagi norozilik harakatlari koordinatsiyasida qanchalik muhim ro'l o'ynagani quyida Misrlik faollardan biridan olingan iqtibosda ko'rishimiz mumkin. Unga ko'ra: "biz namoyishlar vaqtini belgilashda Facebook dan, boshqarishda Twitterdan, va u haqida dunyoga aytishda YouTube dan foydalanyapmiz" (Bhuiyan & Serajul I, 2011, p.16). Mazkur bayonotning o'zi namoyishlarda Ijtimoiy tarmoqning tutgan o'rnini namoyish qilib bera oladi.

Ammo o'tmishda ham dunyo bo'ylab ko'plab samarali inqiloblar amalga oshgan bo'lib u paytlarda internet mavjud ham bo'lmagan. Shu bilan birga ijtimoiy tarmoq vositalarisiz namoyishlar bunchalar tez va shiddat bilan alanga ola olmas edi.Faollar namoyishlarni boshqarib , milionlab insonlarni ko'chalarga Facebook va Twitter vositasida



olib chiqa oldilar. Uning ustiga YouTube yordamida hukumat tomonidan namoyishlar ahamiyatini kamaytirib ko'rsatishga bo'lgan harakatlari samarasi yo'qqa chiqarildi.

Arab bahoridan so'ng yuz bergan o'zgarishlar

Husni Muborak istefosidan keyin hokimiyatga kelgan Muhammad Mursiy prezidentligi davrida ham va uning 2013-yil 30-iyundagi istefosidan keyin qurolli kuchlar oliy kengashi (Supreme Council of the Armed Forces) davrida ham OAV faoliyati bir muncha erkinlashdi. Jurnalistlar AQSH ning harbiy yordami hamda harbiy sud kabi yuqorida aytib o'tilgan yortilishi mumkin bo'lmagan mavzularga ham qo'l urishdi. Ammo shu bilan birga Mursiyning Adolat va taraqqiyot partiyasi hamda umuman Musulmon Birodarlar tashkiloti bilan aloqador sun'iy yo'ldosh kanallari yopildi hamda, Al-jaziraning Qohira offisi ham hali hamon yopiq qolmoqda.

Shu bilan birga Misrning iqtidordagi hukumati OAV ning turli xil turlari mavjudligi va qo'llanilishi kerakligini nafaqat tan oldi, balki ularni 2014- yilgi Konstitutsiyaga ham kiritdi. Quyida 70-moddadan parchani ko'rib chiqamiz:

Qog'oz, vizual, audio va raqamli ma'lumot tarqatish shakllari bilan bir qatorda matbuot va nashr etish erkinligi kafolatlanadi. Misrliklar – jismoniy shaxs yoki yuridik, davlat tasafuridagi yoki xususiylikidan qat'iy nazar - gazetaga egalik qilish va chop etish, vizual, audio va raqamli shakldagi ommaviy axborot vositalarini tashkil etish huquqiga ega. Gazetalar qonun bilan tartibga solinadigan ruxsatnoma berilgandan keyin nashr etilishi mumkin.

2014-yilgi konstitutsiya raqamli OAV ni alohida qayd etib uning har bir turini ta'kidlab o'tganligi bilan Misr hukumatining raqamli OAVning kuchini anglab yetganini ko'rishimiz mumkin.

Boshqa tomondan esa matbuot erkinligini kafolatlab uni konstitutsiyada mustahkamlab qo'yish bu bir ish, ammo, mazkur tadbirlarni tashkil qilish va moddiy jihatdan qo'llab quvvatlash umuman boshqa masaladir. "O'zgarishlarning bir manbasi bu Qohira universiteti va Qohiradagi Amerika universitetlarida (American university in Cairo) tashkil qilingan malaka oshirish kurslari bo'lishi mumkin" (Edward Webb, 2014, p.87). Mintaqaviy va Xorijiy donorlar mazkur o'quv muassasalarini eng zamonaviy uskunalar bilan ta'minlashda katta ahamiyat kasb etishdi. Shunga qaramay Misr OAVlaridagi konservativlik va Muborak davrida amalga oshirilgan senzura metodlarining qo'llanilish ehtimolining mavjudligi Misr OAVlarida yaqin yillarda radikal o'zgarishlar ko'rish ehtimolini pasaytiradi.

XULOSA

Manbalarni o'rganish davomida shunga amin bo'ldikki, Misr arab respublikasida Arab bahorigacha OAV deyilganda Gazeta, Radio, Televideniya tushunilgan. Buning natijasida 21-asrda OAV ning yangi komponentiga aylangan ijtimoiy tarmoqlar Hukumat e'tibori va qattiq nazoratidan chetda qolgan. Buning natijasi esa hukumat uchun qimmatga tushgan. Lekin bu bilan Misr namoyishlari yohud Arab bahorida ijtimoiy tarmoqlarning ishtiroki o'ziga hos bir anomaliya deyishdan ham qochishimiz kerak.



Chunki 21-asrning boshida Serbiya, Gruzija, keyinchalik Ukrainada ham mana shunday nisbatan tinch namoyishlar va ijtimoiy tarmoqlar orqali amaldagi hukumatlar almashgan. Ammo Yaqin sharq va Misr holatidan oladigan sabog‘imiz bu 21-asrda ijtimoiy tarmoq vositalari OAVning yangi turiga aylanib ulgurdi va har bir amaldagi hukumat ularning nazorati haqida bosh qotirishi kerak ekanligidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Amin, H., & Napoli, J. (2000). Media and power in Egypt. De-Westernizing media studies, 178-188.
2. Bhuiyan, S. I. (2011). Social media and its effectiveness in the political reform movement in Egypt. Middle East Media Educator, 1(1), 14-20.
3. Eltantawy, N., & Wiest, J. B. (2011). The Arab spring| Social media in the Egyptian revolution: reconsidering resource mobilization theory. International journal of communication, 5, 18.
4. Misr arab respublikasi konstitutsiyasi (2014 ingliz tilida). constituteproject.org.
5. Sakr, N. (2013). Social media, television talk shows, and political change in Egypt. Television & New Media, 14(4), 322-337. DOI:10.1177/1527476412463446
6. Webb, E. (2014). Media in Egypt and Tunisia: From control to transition?. Springer.
7. Zhuo, X., Wellman, B., & Yu, J. (2011). Egypt: The first internet revolt?. Peace magazine, 27(3), 6-10.
8. Nazirov, M., & Abdusalomova, D. (2023). Theoretical Approaches to the Balance of the World Political System. *Horizon: Journal of Humanity and Artificial Intelligence*, 2(5), 583-586.
9. Nazirov, M. (2021). G‘arb va musulmon olami dialektikasidagi zamonaviy tendensiyalar. *Academic research in educational sciences*, 2(12), 328-334.